

“Veterinariya jarrohligi va akusherlik” kafedrasining assistenti Kipchakov Shuxrat Umirzakovichning «Veterinariya profilaktikasi va davolash» fakulteti 4-bosqich 410-guruh talabalariga “Veterinariya akusherlik” fanidan “Sigirlarda yashirin mastitlarni laboratoriya diagnostikasi” mavzusida ochiq laboratoriya mashg‘ulot dars ishlanmasiga

TAQRIZ

“Veterinariya meditsinasi (faoliyat turlari bo‘yicha)” ta‘lim yo‘nalishi 4-bosqich talabalariga “Veterinariya akusherlik” fanidan “Sigirlarda yashirin mastitlarni laboratoriya diagnostikasi” mavzusi fan dasturi va ishchi o‘quv dasturiga mos keladi. Mazkur dars ishlanmasi veterinariya yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalarning nazariy bilimlarini amaliy ko‘nikmalar bilan mustahkamlashga qaratilgan bo‘lib, sigirlarda yashirin mastit kasalligini laborator usullar yordamida aniqlash bo‘yicha zamonaviy yondashuvlarni o‘z ichiga oladi. Dars ishlanmasida mashg‘ulotning maqsadi, vazifalari, kutilayotgan natijalari, laboratoriya jihozlari va reaktivlari aniq bayon etilgan. Talabalarga sut namunasini to‘g‘ri olish, uni laborator tekshiruvga tayyorlash hamda mastit diagnostikasida qo‘llaniladigan testlarni bajarish tartibi bosqichma-bosqich tushuntirilgan. Mashg‘ulot mazmuni mavzuning dolzarbligini to‘liq yoritib beradi. Chunki yashirin mastit sut mahsuldorligining pasayishiga, sut sifatining yomonlashishiga va chorvachilik xo‘jaliklariga katta iqtisodiy zarar yetkazishiga sabab bo‘ladi. Shu jihatdan talabalarning ushbu kasallikni erta aniqlash usullarini o‘zlashtirishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Assistent Kipchakov Shuxratning Veterinariya profilaktikasi va davolash fakulteti “Veterinariya meditsinasi (faoliyat turlari bo‘yicha)” ta‘lim yo‘nalishi 4-bosqich talabalariga “Veterinariya akusherlik” fanidan “Sigirlarda yashirin mastitlarni laboratoriya diagnostikasi” mavzusidagi ochiq laboratoriya mashg‘ulot matni hozirgi zamon innovasion ta‘lim texnologiyalari talablariga javob beradi deb hisoblayman va uni o‘quv jarayonida foydalanish uchun tavsiya qilaman.

Veterinariya ilmiy tadqiqot instituti,
laboratoriya mudiri, v.f.d.

Qo‘ldoshev O.O‘.



h. o. b. b.

“Veterinariya jarrohligi va akusherlik” kafedrasining assistenti Kipchakov Shuxrat Umirzakovichning «Veterinariya profilaktikasi va davolash» fakulteti 4-bosqich 410-guruh talabalariga “Veterinariya akusherlik” fanidan “Sigirlarda yashirin mastitlarni laboratoriya diagnostikasi” mavzusida ochiq laboratoriya mashg‘ulot dars ishlanmasiga

TAQRIZ

“Veterinariya akusherlik” fanidan “Sigirlarda yashirin mastitlarni laboratoriya diagnostikasi” mavzusi fan dasturi va ishchi o‘quv dasturiga mos keladi. Mavzu reja, ko‘rgazmali qurollar, tayanch iboralar va asosiy mazmunidan iborat. Mavzuning rejasini butun mazmundan kelib chiqqan holda berilgan. Mashg‘ulotda foydalaniladigan ko‘rgazmali qurollar sanab o‘tilgan. Mavzuning asosiy mohiyatini belgilaydigan tayanch iboralar yozilgan. Mavzuning asosiy qismi batafsil berilgan. Bunda darslik va o‘quv qo‘llanmalardan foydalanilgan.

Laboratoriya mashg‘ulot bo‘yicha tayyorlangan taqdimotida “Sigirlarda yashirin mastitlarni laboratoriya diagnostikasi” mavzusi batafsil yoritilgan bo‘lib, hayvonlarda mastitlarni tekshirish, mastitlarning sabablari, patogenizi va davolash usullari, hayvonlarni tekshirishda ishlatiladigan asboblarni, tekshirish texnikasini o‘rgatish usullari, bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga oid rasmlar va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatiga chet el adabiyoti ham kiritilgan bo‘lib aynan ushbu mavzuga mos keladi.

Assistent Kipchakov Shuxratning Veterinariya profilaktikasi va davolash fakulteti Veterinariya meditsinasi (faoliyat turlari bo‘yicha)” ta‘lim yo‘nalishi 4-bosqich talabalariga “Veterinariya akusherlik” fanidan “Sigirlarda yashirin mastitlarni laboratoriya diagnostikasi” mavzusidagi ochiq laboratoriya mashg‘ulot matni hozirgi zamon innovasion ta‘lim texnologiyalari talablariga javob beradi deb hisoblayman va uni o‘quv jarayonida foydalanish uchun tavsiya qilaman.

“Ichki yuqumsiz kasalliklar”
kafedrasini, katta o‘qituvchi



M.A.Sulaymonov